vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

6.2. Tomonda ushbu Shartnomaning 6.1-bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa - amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## 7. BARTARAF ETIB BO'LMAYDIGAN KUCH HOLATLARI (FORS-MAJOR)

7.1. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganligi uchun, agar bunday holat ushbu Shartnoma tuzilgandan keyin va Tomonlar oqilona chora-tadbirlar bilan oldini ololmagan favqulodda tusdagi voqealar oqibatida paydo bo'lgan bartaraf etib bo'lmaydigan kuchlar oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod etiladi. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holatlari deganda: suv toshqini, yong'in, zilzila, davlat organlarining harakatlari yoki harakatsizligi (shu jumladan valyuta operatsiyalarini cheklashlar), epidemiya/pandemiya boshqa tabiat hodisalari, urush yoki harbiy harakatlar va sh.k. tushuniladi.

7.2. Shartnomaning 7.1-bandida ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelganda, har bir Tomon 5 (besh) kalendar kuni ichida bu haqda boshqa Tomonga xabar qilishi kerak. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holatlari to'g'risida xabar qilmaslik yoki o'z vaqtida xabar qilmaslik tegishli Tomonni majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslikni asoslash uchun ularga havola qilishdan mahrum qiladi.

## 8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA UNI BEKOR QILISH SHARTLARI

8.1. Ushbu Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g'aznachiligida ro'yxatga olingan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022 yilning 31 dekabrigacha amal qiladi.